



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI HUZURIDAGI
KINEMATOGRAFIYA AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG‘I**

2025-yil “15” -aprel

43a -son

Toshkent shahri

**Agentlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini
yanada takomillashtirish to‘g‘risida**

Mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, davlat va jamiyat o‘rtasida ta’sirchan hamda samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning mustahkam mexanizmlarini joriy etish, ular faoliyatining ochiqqligini hamda shaffofligini, fuqarolik institutlari bilan samarali hamkorlikni ta’minlash maqsadida, **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘RQ-474-son Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-iyulda “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3837-sonli qarori hamda Madaniyat vazirligining 2024-yil 3-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishining 16-son bayoni ijrosi bo‘yicha” chora-tadbirlar rejasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jamoatchilik kengashining shu kunga qadar amalga oshirgan ishlari ma’lumot uchun qabul qilinsin;

Jamoatchilik kengashining Nizomi **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Agentlikning 2025-yil 15-apreldagi 42a-sonli buyruq bilan tasdiqlangan Jamoatchilik kengashi tarkibi o‘z faoliyatini ushbu Nizomga asosan amalga oshirishi belgilab qo‘yilsin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Direktor v.b.



Sh. Rizayev